

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«MOLIYA» KAFEDRASI



**5230600 – «Moliya» yo‘nalishida ta‘lim oluvchi talabalarning
bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash, yozish, rasmiylashtirish va
himoya qilish bo‘yicha**

USLUBIY QO‘LLANMA

(Bakalavriat)

TOSHKENT-2015

K. Sharifxodjayeva, O. Kamolov, B. Xamroyev, R. Gulyamov. 5230600 – «Moliya» yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalarining bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash, yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma – T.: TMI, 2015. – 64 bet.

Mazkur uslubiy tavsiyalar moliya-iqtisod fakultetida ta‘lim sohasining 5230600 – «Moliya» yo‘nalishi bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Talabalarining bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash, yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma bitiruv malakaviy ishining tarkibi, mazmuni, uni tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha tavsiyalardan tashkil topgan. Uslubiy qo‘llanmada bitiruv malakaviy ishining dolzarb mavzusini tanlash tizimi, rahbari tayinlash, ishni tayyorlash, uni rasmiylashtirish, taqriz berish, dastlabki himoyani o‘tkazish va Yakuniy Davlat attestatsiya komissiya a‘zolari oldida himoya qilish tartibi yoritib berilgan.

Uslubiy qo‘llamaning ilovalar qismida bitiruv malakaviy ishining titul varag‘i, mundarijasi, mazmuni, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati, ilmiy rahbar taqrizi, tashqi taqriz va boshqa zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi keltirilgan.

Uslubiy qo‘llanma talabalar, bitiruv malakaviy ishining ilmiy rahbarlari uchun foydali hisoblanadi. Oliy o‘qruv yurti professor-o‘qituvchilari va Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasi a‘zolari uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin.

Ushbu uslubiy tavsiyalar Toshkent Moliya instituti O‘quv-uslubiy Kengashi yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (201_ yil «__» _____ - sonli majlis bayoni).

Taqrizchilar:

i.f.d., prof. N. Xaydarov

MUNDARIJA

1. Kirish.....	4
2. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.....	5
3. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash.....	6
4. Bitiruv malakaviy ishi rahbarini tayinlash va vazifalarni taqdim etish.....	8
5. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi va mazmuniga qo'yilgan talablar.....	9
6. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish.....	10
7. Bitiruv malakaviy ishini bajarishning asosiy bosqichlari.....	11
8. Bitiruv malakaviy ishi tarkibini tuzish.....	11
9. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirishga qo'yilgan talablar.....	14
10. Rasmiylashtirish.....	15
11. Bitiruv malakaviy ishini dastlabki himoyasi.....	19
12. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish.....	21
13. Bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari.....	26
14. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish grafigi.....	28
15. Bitiruv malakaviy ishining namunaviy mavzulari.....	29
16. Ilovalar.....	38
17. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	56

KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda, oliy ta'lim o'quv yurtlari bitiruvchilarining bilim va ko'nikmalariga nisbatan yuqori talablar qo'yilmoqda. Shuningdek, oliy o'quv yurti bitiruvchilari nafaqat Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan talab va vazifalarni bilishlari hamda bajarishlari lozim, balki ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tahlil qila olishlari va maqbul yechimni topa olishlari zarur hisoblanadi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasining maqsadi – bitiruvchilarning professional vazifalarni bajarishlari uchun tayyorgarlik darajalarining davlat ta'lim standartiga mos kelishini belgilashdan iborat.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturiga asosan, kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirish, xalqaro ta'lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 255-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqildi.

Davlat ta'lim standartlarida bakalavriat bosqichi talabalari barcha fanlar bloki bo'yicha qo'llanilishi talab etilgan bilimlarni, tugallangan kasbiy vazifasini o'zining bitiruv malakaviy ishida amalga oshirishi belgilangan. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida talabalar o'qishning yakuniy bosqichida bitiruv malakaviy ishini tayyorlashlari va himoya etishlari ko'zda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad – talabalar tomonidan ixtisoslik fanlari bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyot ma'lumotlari bilan bog'lagan holda, tahlil ishlarini amalga oshirib, tegishli xulosalarni shakllantirish, fanning muayyan mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirib, bilim darajalarini yuksaltirishdir.

Uslubiy ko'rsatmaning maqsadi – talabalarga bitiruv malakaviy ishini yozishga ko'maklashish va Davlat attestatsiya hay'ati oldida muvaffaqiyatli himoya qilish.

Uslubiy ko'rsatmada bitiruv malakaviy ishi (BMI) tarkibi, mazmuni va uni rasmiylashtirish talablari yoritilgan. Shuningdek, BMIga rahbarlik qilish va ularni bajarilishi ustidan kafedra nazorati masalalari ko'rsatib o'tilgan.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – talabalarning ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi real muammolarni mustaqil yechishlari uchun iqtisodiyot hamda boshqaruv sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, chuqurlashtirish va ixtisoslashtirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar o‘z yechimini topadi:

- kasbiy faoliyatning dolzarb masalalarini mustaqil tadqiq etish;
- maxsus fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va kengaytirish;
- talabalar tomonidan mustaqil tadqiqot ishini olib borish ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, turli ma’lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlash;
- bitiruv malakaviy ishida qo‘yilgan muammoni yechishda tadqiqot usullarini o‘zlashtirish;
- tashkiliy-iqtisodiy tizimlar sohasida tahlil hamda loyihaviy ishlarning zamonaviy usullarini o‘rganish va qo‘llash.

Bitiruv malakaviy ishining bajarilish sifati talabaning asosiy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini qanchalik o‘zlashtirganligi, shuningdek, taklif qilinayotgan muammolar yechimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalarni keltirganlik darajasi bilan belgilanadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZUSINI TANLASH

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari buyurtmachilarning xodimlarga bo‘lgan talabini, hozirgi zamon fan-texnika va texnologiya taraqqiyotini e’tiborga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis tayyorlovchi kafedra (“Moliya” kafedrasi) tomonidan tuziladi va fakultetning Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari har bir talaba uchun 5 ta mavzu nisbatida tuziladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusining ro‘yxati talabalarning bitiruv kursi

boshida oktyabr oylarida bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar, tadqiqot ob'ekti bilan birgalikda e'lon qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari nazariy-tahliliy, tahliliy-amaliy, ilmiy-izlanish kabi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning rivojlanishi istiqboldagi yo'nalishlarini o'zida aks ettirishi lozim.

Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'ini to'layotgan buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantini taklif etishi ham mumkin.

Ushbu uslubiy tavsiyalarning 1-ilovasida bakalavriyatning "Moliya" yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan bitiruv malakaviy ishi mavzulari va tadqiqot ob'ektlari na'muna tariqasida keltirilgan. Tavsiya etuvchi mavzular ro'yxati buyurtmachilar taklifi asosida kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan tuziladi, bunda bitiruvchilar faoliyat boshlaydigan soha mutaxassislari, Moliya vazirligining hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa moliya tashkilotlarining talablari, ularning taklif-mulohazalari inobatga olinadi. Mavzularning ro'yxati har o'quv yilida kamida 30 foizga yangilanishi va amaliyot muassasalari bilan muvofiqlashtirilishi ta'minlanadi. O'quv yili boshlanishida kafedra professor-o'qituvchilari bitiruvchi kurs talabalarini mazkur mavzular bilan tanishtiradilar. Talabalar o'z qiziqishlaridan, avvalgi bosqichlarda yozilgan kurs ishlari, ilmiy maqolalari va boshqa shu kabi ilmiy izlanishlari mavzularidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan taqdim etilgan ro'yxatdagi mavzulardan birini tanlaydilar.

Bir yo'nalish bo'yicha ikki va undan ortiq talabaning bir mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ishi yozishlariga ruxsat berilmaydi. Ixtisoslik fanlari bo'yicha dars o'tuvchi kafedra professor-o'qituvchilari talabalar bilan suhbatlashib, mavzu tanlash bo'yicha maslahatlar beradilar. Talabalar o'zi tanlagan mavzuni ularga

biriktirilishi uchun kafedraga ariza bilan chiqishlari mumkin, va ushbu xolat kafedra majlisida o'rganiladi. Har bir talaba tanlagan mavzular bo'yicha ma'lumot yig'ib, kafedrada buyruq loyihasi tayyorlanadi. Buyruq loyihasi kafedra yig'ilishida muhokama etiladi.

Talabalar tanlagan mavzular bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan kafedraning etakchi professor-o'qituvchilari yoki mutaxassis amaliyotchilar bitiruv malakaviy ishlariga ilmiy rahbar sifatida biriktiriladi. Bunda ommaviy axborot vositalarida o'z ilmiy maqolalarini chop etgan, talabalar ilmiy to'garaklarida qatnashgan yoki boshqa shu kabi ilmiy izlanishlarni olib borgan iqtidorli talabalar o'z izlanishlari mavzusi doirasida o'z ilmiy rahbarlari boshchiligida bitiruv malakaviy ishlari yozishlari ta'minlanadi. Har bir professor-o'qituvchining ilmiy salohiyati, pedagogik tajribasi, o'quv yuklamasi, intizomi, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi darajasi kabi shaxsiy fazilatlari ham hisobga olinadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI RAHBARINI TAYINLASH VA VAZIFALARNI TAQDIM ETISH

Bitiruv malakaviy ishi rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. (4-ilova) Topshiriqning shakli kafedra tomonidan belgilanadi.

Malakaviy ishlarga rahbarlar mazkur oliy o'quv yurtining shu sohaga tegishli bo'lgan professor-o'qituvchilari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- topshiriq beradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlar o'tkazadi;

- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha ilmiy maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo‘limlari bo‘yicha ilmiy maslahatchilar etib, turdosh oliy o‘quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Ilmiy maslahatchilar talaba bajargan ishning sifatini oshirish yuzasidan amaliy maslahatlar beradi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI TARKIBI VA MAZMUNIGA QO‘YILGAN TALABLAR

Bitiruv malakaviy ishi Toshkent moliya instituti bitiruvchisining yakuniy tadqiqot ishi hisoblanadi va shu asosda Davlat attestatsiya komissiyasi tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini hamda BMI ni muvaffaqiyatli himoya qilish sharti bilan diplom berish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

BMI kafedra talablariga mos ravishda bajariladi va “Moliya” mutaxassisligi bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va kengaytirish, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, bitiruvchiga professional muammolarni yechish imkonini beruvchi umum madaniy va professional malakasini shakllantirish kabi o‘z maqsadlariga ega.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish jarayonida bitiruvchi quyidagilarni namoyish qilishi lozim: nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda mamlakat, uning hudud va tumanlarining rivojlanish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarni tahlil qila olish usullaridan foydalanish qobiliyati; hukumat, viloyat va

tuman boshqaruv miqyosidagi ma'muriy boshqaruv qarorlarini ilmiy usullar hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda qabul qilish va amalga oshirish; o'z nuqtai nazarini munosib himoya qilish, asosli xulosa va takliflar qilish.

Bitiruv malakaviy ishining bajarilish muddati, uni himoya qilish tartibi hamda baholash mezonini Toshkent moliya institutining Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi, uning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish strategiyasiga mos kelishi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi zamonaviy muammolarni yechishi lozim. Bitiruv malakaviy ishi talabalar tomonidan diplom oldi amaliyoti joylarida to'plangan aniq ma'lumotlar asosida bajarilishi zarur. Bitiruvchi talabaga bitiruv malakaviy ishi mavzularini kafedra hamda buyurtmachi tashkilot vakili tomonidan taqdim etilgan BMI mavzulari ro'yxatidan kelib chiqib tanlash imkoniyati beriladi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHGA RAHBARLIK QILISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari tasdiqlangandan so'ng talaba ilmiy rahbari bilan birgalikda BMI bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni ilovada keltirilgan shakl bo'yicha to'plash va BMIning alohida bo'limlarining bajarilish muddatlarini belgilash bo'yicha vazifalarni ishlab chiqadi. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha vazifalar shakli Toshkent moliya instituti O'quv uslubiy boshqarma va mutaxassis kafedra bilan birgalikda tasdiqlanadi. BMI bo'yicha vazifalar va ularning belgilangan muddatlarda bajarilishi bo'yicha jadval to'ldirilgan holda tayyor BMI bilan birga Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasiga topshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining rahbari ishning tayyorlash bosichidan boshlab uning quyidagi asosiy funksiyalarini bajarishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni nazorat qiladi: talaba bilan birgalikda BMI rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; BMIning bajarilish bo'yicha vazifalarni shakllantiradi; BMIning tayyorlashning kalendar

rejasini tuzadi; ilmiy adabiyotlar, ma'lumotnomalar, statistik hisobotlar va boshqa ma'lumotlar manbalari bo'yicha adabiyotlarni to'plashga ko'maklashadi; maslahat berish jadvaliga asosan BMI va uni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish masalalari bo'yicha tizimli maslahatlar beradi; tayyor bo'lgan BMI bo'limlarini o'qib chiqadi va tahrir qiladi, bajarilgan ishning mazmunini baholaydi; BMIning kalendar reja bo'yicha bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; talaba tomonidan ish belgilangan rejaga amal qilinmaganda bu holat yuzasidan kafedra va dekanatga ma'lumot beradi; talabalarning BMIning asosiy mazmuni bo'yicha tayyorlangan tezis va ma'ruzalarni konferensiya tezislari to'plamida chop etilishidan oldin o'qib chiqadi va tahrir qiladi; BMI bo'yicha taqriz beradi va uning titul varag'iga o'z imzosini qo'yadi; BMIning himoya qilish uchun talaba tomonidan tayyorlangan taqdimot va ma'ruzani tekshiradi. BMI rahbari o'z ish rejasidan kelib chiqqan holda talabalarga haftasiga bir-ikki marta maslahatlar beradi.

Bitiruv malakaviy ishining alohida bo'limlarini tayyorlash uchun boshqa oliy o'quv yurtlaridan ilmiy maslahatchilarni (professorlar, dotsentlar, ilmiy xodimlar) hamda boshqa tashkilot va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislarini taklif qilish mumkin.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

Kafedra tomonidan bitiruv malakaviy ishini bajarishning quyidagi tartibi tavsiya etiladi:

- BMI rejasini tayyorlash va uning tarkibini aniqlash;
- adabiyotlar, normativ va qonun hujjatlarini to'plash;
- aniq axborot-tahliliy ma'lumotlarni to'plash;
- to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish;
- aniq ma'lumotlarni tahlil qilish;
- boshqaruv ob'ektining rivojlanish istiqboli bo'yicha baholash va prognozlash hisob-kitoblarini bajarish;

- boshqaruv ob'ekti tizimini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

- BMIda ko'rilayotgan masalalar bo'yicha xulosa va takliflar berish;
- BMI ni rasmiylashtirish;
- BMI ni "Anti plagiat" tizimi tekshirish.

Rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi o'rnatilgan tartibda muqovalanishi lozim. Muqovalashtirilgan BMI talaba tomonidan imzolanadi va ilmiy rahbarga yakuniy nazorat uchun hamda taqrizga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar taqrizi va ishning "Anti plagiat" tizimida tekshirilganligi to'g'risidagi hisobot BMIga alohida ilova qilinadi. BMI kafedraga ikki xil shaklda taqdim qilinadi: chop etilgan va elektron (CD disk) shaklida.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI TARKIBINI TUZISH

Talaba bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim: bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy jihatlarini yoritishi; o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savolni mosligi; bitiruv malakaviy ishi maqsad va vazifalarini shakllan-tirish va muammoli holatini amaliy materiallar asosida tahlil etishi; bajarilgan ishlar natijasi bo'yicha xulosalar qilish hamda tegishli faoliyat sohalarida ularni amalda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashi.

BMI rejasi talaba tomonidan individual yondashuv asosida mustaqil tuziladi. Biroq, BMI rejasiga individual yondashuvlarning xilma-xil bo'lib, an'anaviy BMI rejasi sifatida quyidagini keltirish mumkin:

1. Kirish
2. Birinchi bob (bobning to'liq nomlanishi)
3. Ikkinchi bob (bobning to'liq nomlanishi)
4. Uchinchi bob (bobning to'liq nomlanishi)
5. Xulosa (yoki xulosa va takliflar)
6. Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati

7. Ilovalar

BMIning an'anaviy tarkibiy tuzilishiga muvofiq har bir bobda 2-3 paragrafdan (savoldan) iborat bo'lishi kerak.

Kafedraning tavsiyasiga binoan malakaviy ish chet (ingliz, nemis yoki fransuz) tilida bajarilishi ham mumkin.

Malakaviy ishni bajargan talaba tanlangan mavzuning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Malakaviy ishining hajmi titul varag'i, mundarijasi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 60 betdan oshmasligi lozim.

Ishning *kirish* qismida malakaviy ish mavzusining dolzarbligi asoslanadi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob'ekti, predmeti va mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati aks ettiriladi. Mavzuning dolzarbligini asoslashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari va ma'ruzalaridan iqtibos keltirish mumkin.

Ishning *birinchi bobida* mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi. Birinchi bobni 2-3 paragrafdan iborat holda yozish, birinchi paragrafda mavzuning nazariy asoslari, mohiyati, ahamiyatini yoritish, ikkinchi paragrafida mavzuning tashkiliy-huquqiy asoslarini aks ettirish va uchinchi paragrafda tadqiqotning xorijiy tajribalarini yoki nazariy qarashlarini bayon etish tavsiya etiladi. Bunda turli iqtisodiy maktablar vakillari bo'lgan iqtisodchi olimlar asarlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilishi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilishi mumkin.

Malakaviy ishning *ikkinchi bobida* mavzuga oid amaliyot holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar, muammolar, masalalarni shakllantirish, ikkinchi bobni 2-3 paragrafdan iborat holda yozish tavsiya etiladi. Ikkinchi bobda jadvallar, diagrammalar, rasmlar

shaklida amaliyot ma'lumotlaridan keng foydalanish, ularni batafsil tahlil etish talab etiladi. Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralarining rasmiy internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga, talaba tomonidan bitiruvoldi va malakaviy amaliyot davomida to'plangan amaliyot ma'lumotlariga asoslanish tavsiya etiladi. Bunda har bir jadval, diagramma va rasmlarning manbalari aniq ko'rsatilishi zarur.

Ishning *uchinchi bobida* mavjud holatni takomillashtirish yuzasidan iqtisodchi olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda bayon etish tavsiya qilinadi. Uchinchi bobni ikki paragrafdan iborat holda yozish, birinchi paragrafda mavzu bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni mamlakatimizda qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari haqida fikr-mulohazalar berilib, ularni asoslash, ikkinchi paragrafda mavzuga oid zamonaviy asarlarda tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, ularga nisbatan talabaning mustaqil munosabatini bildirishi talab etiladi (mavzudan kelib chiqib, ayrim hollarda uchinchi bobni paragraflarga ajratmaslik ham mumkin).

Malakaviy ishining *xulosa* qismida mavzuni o'rganish davomida talaba tomonidan shakllantirilgan xulosalar bayon qilinadi. Amalga oshirilgan tahlil jarayonida chiqarilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamonaviy asarlarda bayon etilgan tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan xulosalar keltiriladi. O'zgarishlar dinamikasini hisobga olgan holda, kuzatilgan asosiy an'analar to'g'risida talabaning shaxsiy munosabati bildiriladi, va talabaning istagi bo'yicha takliflar beriladi.

BMIning hajmi 12-14 ming so'z darajasida belgilanadi. BMIda keltirilgan chizmalarning shakli, shartli belgilar, shrift va masshtablar amaldagi standart talablariga qat'iy muvofiq kelishi zarur.

Kafedraning tavsiyasiga binoan BMI chet tillarining birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI RASMIYLASHTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR

Bitiruv malakaviy ishi kompyuterda bir nusxada tayyorlanadi va yuz qismi oq qog‘ozga quydagicha rasmiylashtiriladi:

- qog‘oz o‘lchami standart A4 shaklda (210 x 297 mm)
- bet hoshiyasi: chapdan – 30 mm, yuqoridan – 20 mm, o‘ngdan – 15 mm, pastdan – 20 mm
- orientatsiya: kitob shakli
- shrift: Times New Roman
- kegel: 14 pt – asosiy matnda, 10 pt havola va jadvalda
- qator oralig‘i intervali: 1,5 – asosiy matnda, 1 - satr osti manbalarda
- so‘zlarni bo‘lib ko‘chirishdagi joylashuv: avto
- asosiy matn va manbalarni formatlash: parametrlarda – “eniga”
- shrift rangi: qora rang
- qizil qator: 1,25 sm

Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 45-65 sahifadan iborat bo‘ladi. Ishni rasmiylashtirishda tasvirning teng zichligiga, qarama-qarshiligiga (kontrastnost) va tiniqligiga rioya qilinishi talab qilinadi. Matnda dog‘, so‘zlarni tagiga chizish va qisqartirish kabilar bo‘lishi kerak emas.

Bitiruv malakaviy ishi sahifalarini raqamlashda quyidagilar talab etiladi:

Matn betlari arab raqamlari bilan pastdan o‘ng tomondan ramlashtiriladi. Bitiruv malakaviy ishining titul varog‘iga raqam qo‘yilmaydi, ammo umumiy raqamlashtirish tarkibiga kiritiladi. Raqamlashtirish “KIRISH” qismidan boshlanadi. Ilova sahifalari raqamlashtirilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirishda sarlavha qismi quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

1. BMining barcha tarkibiy elementlari: KIRISH, ASOSIY QISM BOBLARI, XULOSA, ADABIYOTLAR RO‘YHATI, ILOVALAR yangi

sahifadan boshlanishi lozim.

2. Boblar arab raqamlari bilan raqamlashtiriladi (1, 2, 3).

3. Paragraflar boblar doirasida arab raqamlari bilan raqamlashtiriladi (1.1, 1.2, 1.3). Boblar, paragraflar sarlavhalarini qalin shriftlarda ajratib yozishga ruxsat etiladi.

RASMIYLASHTIRISH

BMIning titul varag'ida oliy ta'lim muassasasining va mutaxassis chiqaruvchi kafedra nomlari, mutaxassisligi, talabning F.I.Sh., BMI mavzusi, ilmiy rahbarning F.I.Sh. keltiriladi (namuna ilovada keltirilgan).

Malakaviy ishning har bir bobiga muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalaridan foydalanish bilan bunda foydalangan har bir manba havola (сноска) shaklida ko'rsatilishi shart) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Davlat arboblari, xorijiy olimlar va umuman, barcha iqtisodchi olimlar fikrlaridan iqtibos (цитата) keltirilganda, manba aniq ko'rsatilishi talab qilinadi. Bunda, avval muallifning familiyasi, ismi, keyin asar nomi, asar turi (darslik, o'quv qo'llanma, to'plam yoki boshqa shu kabilar), chop etilgan joyi, nashriyot nomi, chop etilgan yili, asar jami necha varaqdan iborat ekanligi va keltirilgan fikr bu asarning nechanchi varag'ida berilganligi aniq ko'rsatiladi. Iqtibos matni qo'shtirnoq ichida beriladi, yakunida "havola" (сноска) belgisi qo'yiladi va varaq pastida manba ko'rsatiladi.

Masalan, quyidagi shaklda «Moliyaviy siyosatning eng asosiy xususiyati shundan iboratki, u mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak»¹.

¹ Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet – soliq siyosati. – T.: Sharq. 2011. - 472 b. 24 - bet.

Davriy nashrlarda (jurnal, gazeta kabi) chop etilgan maqolalardan iqtibos keltirish ham yuqoridagiga o‘xshash bo‘lib, unda asar turi o‘rniga, nashr turi bayon etiladi (jurnali yoki gazetasi kabi), chop etilish joyi, sanasi va raqami ko‘rsatiladi.

Masalan, quyidagi shaklda “Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi rejalashtirilmoqda.”²

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning o‘rni³

t/b	Ko‘rsatkichlar	201x	201x	201x	201x
1	Foyda yoki daromad, mln.so‘m	1,0	1,0	1,2	1,4
2	Soliq stavkasi, %	30	25	25	25
3	Soliq summasi, mln.so‘m	0,3	0,25	0,3	0,35
4	Soliq to‘lovchining ixtiyorida qolgan summa, mln.so‘m	0,7	0,75	0,9	1,5
5	Soliq to‘lovchi ega bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘ summasi, mln.so‘m	-	0,05	0,2	0,35

Ishda keltiriluvchi jadvallar, diagrammalar, rasmlar kompyuterda tayyorlanib, printerda chop etilgan holda kiritilishi mumkin. Jadval tuzilganda avvalo, yuqorida, o‘ng tarafda, chetda jadvalning raqami keltiriladi. Jadvallar malakaviy ish boshidan oxirigacha, birdan boshlab tartib bilan, arab raqamlarida (1-jadval, 2-jadval ... shaklida) raqamlanadi. Jadval raqamidan bir qator pastda, matn o‘rtasida jadvalning nomi keltiriladi. Jadvallar, albatta, nomlanishi shart, nomsiz jadvallarni ishga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Jadval nomi yakunida

² Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston. 2012. – 36 b.

³ Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet – soliq siyosati. – T.: Sharq. 2011. - 472 b. 324 - bet.


“havola” (ссылка) beriladi (jadval kompyuterda, WORD dasturida tayyorlansa, dastur menyusining “Вставка/ссылка/ссылка” bo‘limida qo‘yish mumkin). Bunda jadval ma’lumotlari manbasi aniq ko‘rsatiladi. Manba ko‘rsatilganda, avval muallifning familiyasi, ismi, keyin asar nomi, asar turi (darslik, o‘quv qo‘llanma, to‘plam yoki boshqa shu kabilar), chop etilgan joyi, nashriyot nomi, chop etilgan yili, asar jami necha varaqdan iborat ekanligi va mazkur jadval bu asarning nechanchi varag‘ida berilganligi aniq ko‘rsatiladi. Masalan, yuqoridagi shaklda.

Jadval muayyan manbadan olinmay, balki bir qancha ma’lumotlar tahlili natijasida shakllantirilsa, bunda manba sifatida “muallifning tadqiqotlari natijasida “.....” tahlili asosida shakllantirildi” deb yoziladi va qaysi ma’lumotlar tahlil qilinganligi ko‘rsatiladi. Jadval internet saytlari ma’lumotlaridan olingan bo‘lsa, sayt sahifasiga havola aniq ko‘rsatiladi. Masalan, quyidagi shaklda: [http://mf.uz/index.php?go= announcement&in=cat&id=2](http://mf.uz/index.php?go=announcement&in=cat&id=2). Malakaviy ish matnida rasmlar yoki diagrammalar keltirilganda ham yuqoridagi kabi rasmiylashtiriladi. Rasm nomi yakunida ham “havola” keltiriladi va manbasi ko‘rsatiladi.

Jadval (diagramma, rasm) keltirishdan maqsad, matnda bayon qilingan fikrlarni asoslash bo‘lishi kerak. Har bir jadval (diagramma, rasm) ma’lumotlari, albatta, tahlil qilinishi talab etiladi. Tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar shakllantiriladi. Malakaviy ish matnida bir nechta jadval (diagramma, rasm)larni ketma-ket berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, har bir jadval (diagramma, rasm)dan keyin matn shaklida uning tahlili keltirilishi shart. Rasm shaklidagi diagramma va grafiklar (snapshot) ham yuqorida keltirilgan qoidalar asosida rasmiylashtirilishi lozim.


Jadval (diagramma, rasm, ‘snapshot’) nomi va uning tarkibidagi ma’lumotlar o‘zbek tilida lotin alifbosida keltirilgan bo‘lishi lozim.

Grafikni rasmiylashtirish namunasi



1-rasm. Iqtisodiy elementlar bo'yicha xarajatlar dinamikasi

Diagrammani rasmiylashtirish namunasi



2-rasm. "AVESTA" MCHJ tarkibidagi transport vositalari soni

Jadvallar va rasmlar manbalari havola shaklida berilganda, varaqning quyi qismida, malakaviy ish matnining pastida beriladi. Matndan keyin varaqning o'rtasigacha chiziq chizish va chiziq pastiga manbani yozish tavsiya etiladi. Bunda manba malakaviy ish matniga nisbatan kichikroq yozuv bilan yoziladi. Varaq pastida 2 sm joy qoldirish tavsiya etilgan. Manba yozilganda ham mana shu joyni bo'sh qoldirish, manbani uning tepasiga yozish talab qilinadi, ya'ni manba ko'rsatilganda varaqning eng pastki qismigacha yozish taqiqlanadi.

Ifodalar. BMIda ifodalar arab raqamlarida yoziladi va raqamlashtiriladi hamda ifoda tartib raqami nuqta bilan ajratiladi, masalan, 1.3 (birinchi bobning uchinchi ifodasi).

Masalan:

$$PV = \frac{CF}{(1+r)^t}, (1)$$

bunda, PV – joriy qiymat, CF – pul oqimlari, r – foiz (diskont) darajasi, t – davr.

Bitiruv malakaviy ishi yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Bunda talaba malakaviy ishni yozish mobaynida haqiqatda foydalanilgan adabiyotlarni ko‘rsatishi talab etiladi. Ish matnida iqtibos (цитата)lar keltirilgan yoki havola (ссылка)lar berilgan adabiyotlarning barchasi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Malakaviy ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzishning metodologik asosi bo‘lib quyidagi manbalarni keltirish mumkin. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma‘ruzalari (yuqoridagilarning barchasini ro‘yxat boshida ketma-ket keltirish tavsiya etiladi);
- Kitob va turkum nashrlari (adabiyotlar ro‘yxatida mualliflarni familiyasi ketma-ket berish tavsiya etiladi);
- Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalari;
- Statistika va hisobot materiallarini keltirish mumkin.
- Xorijiy ilmiy nashrlar va internet saytlari;

- (ilova shaklida ham keltirish mumkin)

O‘zbekiston iqtisodchi olimlarining asarlari, xorijiy olimlar asarlari, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy ishlar ham ro‘yxatga kiritiladi. Bunda avvalo muallif nasl-nomasi, keyin asar nomi, asar turi (darslik, o‘quv qo‘llanmasi yoki boshqa turdagi asar) chop etilgan joyi va sanasi, asar jami necha varaqdan iborat ekanligi bayon etiladi. Ishini yozish jarayonida talaba oxirgi 5-10 yil ichida bosmadan chiqqan adabiyotlardan foydalanishi tavsiya etiladi.

Masalan:

1. Malikov T.S. , Jalilov R.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “IQTISOD MOLIYA”, 2011. – 450 bet.

Mazkur qo‘llanmani 9 – ilovasida adabiyotlar ro‘yxatining namunaviy shakli berilgan.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING DASTLABKI HIMOYASI

Bitiruvchi talabalarni bitiruv malakaviy ishini dastlabki himoya qilish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Dastlabki himoyani birinchi bosqichi 4 kursning 1 semestr yakunlarida o‘tqazilib, unda talaba tomonidan quyidagi ma’lumotlarni dastlabki himoya komissiya a’zolariga taqdim etishi talab qilinadi. Jumladan:

- ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlangan bitiruv malakaviy ishi rejasi;
- bitiruv malakaviy ishining *kirish* qismi (mavzuni dolzarbligi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob’ekti, ishning predmeti va ma’lumot bazasi) aks ettiriladi;
- bitiruv malakaviy ishining 1 – bobini har bir paragrafi bo‘yicha mavzuning nazariy-huquqiy asoslari bayon etiladi;
- bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etadilar.

Dastlabki himoyaning ikkinchi bosqichida talaba tomonidan quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:

– talabani bitiruv oldi amaliyoti davrida amaliyot bazasining barcha ma'lumotlari bo'yicha bitiruv malakaviy ishining tahlil etilganlik darajasi asosida ishning 2-bobi dastlabki himoya komissiyasi a'zolariga bayon etiladi;

– bitiruv malakaviy ishining 3-bobi (ishning 2-bobi ya'ni, tahliliy qismidan kelib chiqib, mavzuni takomillashtirishga qaratiladi) taqdim etiladi;

– bitiruv malakaviy ishining *xulosa* qismi ko'rsatib beriladi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI HIMOYA QILISH

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish bilan tanishib chiqib, talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabanning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasi (DAK) da himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabanning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Bu holatda kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga takdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni buyurtmachi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Moliya vazirligining hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa moliya tashkilotlari mutaxassislari taqrizchi sifatida tanlanadi. Taqrizchilar sifatida turdosh oliy o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Taqriz olingandan so'ng, kafedrada tuziladigan bitiruv malakaviy ishining

dastlabki himoyasi bo'yicha Attestatsiya hay'ati oldida malakaviy ishlarning dastlabki himoyasi o'tkaziladi. Dastlabki himoyada ijobiy baholangan bitiruv malakaviy ishlari ro'yxati fakultet dekaniga taqdim etiladi.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAKga yuboradi. Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda bitiruv malakaviy ishlarini himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi. Uzrli sabab bilan bitiruv malakaviy ishini belgilangan muddatda himoya qilolmagan talabalarga rektorning qarori bilan, Davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlarini baholash mezonlari kafedra tomonidan tayyorlanadi, Davlat attestatsiya komissiyalarining raislari ishtirokida muhokama qilinadi va oliy o'quv yurti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Baholash mezonlarida bitiruv malakaviy ishi mavzusida ommaviy axborot vositalarida ilmiy maqolalarini chop etgan talabalarni rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

Bitiruv malakaviy ishlari himoyasi davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda o'tkaziladi.

Davlat attestatsiya komissiyalari institut rahbariyati va ilmiy-pedagogik kadrlari tarkibidan (attestatsiya komissiyasi tarkibining 50% dan ortiq bo'lmagan) va boshqa taklif etiladigan muassasalar vakillaridan – mazkur soha kadrlarini iste'molchilari bo'lmish korxonalar, tashkilot va muassasalarning etuk mutaxassislari, turdosh oliy o'quv yurtlarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, muvofiq sohalar va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi olimlardan shakllantiriladi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarining natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari (%ga nisbatan) bilan aniqlanadi va attestatsiya komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda

rasmiylashtirilgandan so‘ng shu kunning o‘zida e‘lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1998 yil 31 dekabr 362-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy Davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi Nizom” va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus maxsus ta‘lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 255-son buyrug‘i bilan yangi tahrirdagi “Institutda bakalavrlarning bitiruv malakaviy ish (BMI)ini bajarishga qo‘yiladigan talablar” va mazkur qo‘llanma Toshkent moliya instituti talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini yozish va himoya qilish jarayonini tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy hujjat hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash va himoya qilish jarayonida ushbu hujjatlarda ko‘rsatilmagan boshqa hujjatlarni talab qilish, boshqa cheklovlar yoki talablarga yo‘l qo‘yilmaydi.

BMI himoyadan so‘ng (kamida 10 yil) oliy ta‘lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo‘yicha BMI ni boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo‘lganda (tatbiq etish, tanlovlar va hakoza), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o‘quv yurtida qoldiriladi).

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAHOLASH MEZONI

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 1998 yil 31 dekabr 362 – sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishiga qo‘yladigan talablar” Nizomidan kelib chiqib, talabaning o‘zlashtirishi quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi:

Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
86-100	A‘lo	Talaba tomonidan mustaqil xulosa va takliflar ishlab chiqilgan, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish, mohiyatini tushunish, aytib bera olish, mustaqil tasavvurga ega bo‘lish. YADAK a‘zolari savollariga 80-100% javob bera olish. Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar bo‘yicha aniq echimini taqdim etish. BMI yozilishi

		jarayonida olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar asosida maqola yoki tezis chop etilganligi hisobga olinadi.
71-85	Yaxshi	Talaba tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish va mustaqil tasavvurga ega bo'lish. YADAK a'zolari savollariga 60-90% javob bera olish.
55-70	Qoniqarli	Talaba tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini bayon qila olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib bera olish, tasavvurga ega bo'lish. Olib borilgan izlanishlar asosida xulosaga ega bo'lish. YADAK a'zolari savollariga 30-60% javob bera olish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, tanlangan mavzuni bilmaslik, tushunmaslik. Yoki BMI ishida ko'chirmachilikka yo'l qo'yilishi. YADAK a'zolari savollariga 25% va undan kamiga javob berishi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TAYYORLASH VA HIMOYA QILISH GRAFIGI

№	Muddati	Bajariladigan ishlar
1.	Oktabr	Bitiruv malakaviy ishi mavzularini talabalarga taqdim etish. Talabalar tomonidan BMI mavzusini tanlash, tanlangan mavzu biriktirilishi to'g'risida ariza yozish. BMIning yozish uchun kafedra tomonidan rahbarlar biriktiriladi. Buyruq loyhasi tayyorlanadi.
2.	Noyabr - dekabr	Talaba rahbardan BMI rejasini tasdiqlatadi va ushbu reja bo'yicha BMI yozilishi bo'yicha topshiriq oladi. BMIning nazariy materiallari yig'iladi, o'rganib chiqiladi. BMI nazariy qismi bo'yicha tezis yoki maqolalar chop etiladi.
3.	Dekabr ikkinchi yarmi -Fevral	BMIning birinchi dastlabki himoyasi, 1 chi bob (ishning nazariy qismi) himoyasi.
4.	Mart	Bitiruv malakaviy amaliyoti joylaridan 2 chi bobga tegishli bo'lgan materiallarni yig'ish va o'rganib chiqish. Ularni tahlilini o'tqazish va 2 chi bobni yozish.
5.	Aprel	O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida 3 chi bobni va xulosalarni shakllantirish. 1,2,3 chi boblarni, xulosa, kirish va adabiyotlar ruyxatini yozib tugatish.

		BMI ni ilmiy rahbarga taqriz yozilishi uchun topshirish.
6.	Fevral, Mart, Aprel	BMI ni yozilishi jarayonida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida shakllantirilgan xulosalar bo'yicha tezis yoki maqolalar chop etiladi.
7.	May oyining ikkinchi yarmi	BMI ning ikkinchi yakuniy dastlabki himoyasi (ishning 95-100% taqdim etiladi). BMI bo'yicha tashqi taqrizni olish. BMI himoyasiga prezentatsiya tayyorlash.
8.	Iyun (BMI himoyasi kunidan kamida bir hafta oldin)	BMI ni kafedra mudiri va fakultet dekaniga taqdim etish. BMI ni muqova (pereplyot) qilish. BMI himoyasi ma'ruzasini tayyorlash.
9.	Iyun	BMI himoyasi

ILOVALAR

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING NAMUNAVIY MAVZULARI

1-ilova

Oliy ta'limning bakalavriat bosqichi

5340600 – “Moliya” yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi mavzularining

NAMUNAVIY RO‘YXATI

1. Aholi jamg‘armalarini tijorat banklariga jalb qilishning ob‘ektiv zarurligi
2. Aholini ijtimoiy himoyalashda maxalliy byudjetlarning tutgan o‘rni
3. Aholini ijtimoiy himoya qilishda byudjetdan tashqari fondlarning o‘rni va ahamiyati
4. Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarini amalga oshirishda byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyatini oshirish masalalari
5. Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish masalalari
6. Bank nazoratini mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi o‘rni
7. Banklarning moliya bozoridagi investisiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari
8. Byudjet daromadlari shakllanishiga soliq imtiyozlarining ta’siri
9. Byudjet daromadlarini maksimallashtirida to‘g‘ri soliqlarning tutgan o‘rni oshirish masalalari.
10. Byudjet jarayonini amalga oshirishda Moliya vazirligini ahamiyatini oshirish masalalari
11. Byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni tashkil etish masalalari
12. Byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilishda G‘aznachilik organlari mas’uliyatini oshirish masalalari
13. Byudjet mablag‘laridan foydalanishda davlat nazoratini ta’minlash

yo‘llari

14. Byudjet muassasalalarini byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari

15. Byudjet tashkilotlari mablag‘laridan oqilona foydalanish va uning moliyaviy nazoratini mustahkamlash yo‘nalishlari

16. Byudjet tashkilotlari mablag‘laridan foydalanishni takomillashtirish masalalari

17. Byudjet tashkilotlari moliyasini samarali tashkil etish va boshqarish masalalari

18. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari

19. Byudjet tashkilotlarini moliyaviy mablag‘ bilan ta‘minlashda moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari

20. Byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish

21. Byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning o‘rni va ular taraqqiyotining hozirgi zamon muammolari

22. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning davlat byudjetidagi ahamiyatini oshirish masalalari

23. Byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etishda xorij tajribalaridan foydalanish samaradorligi

24. Byudjetdan tashqari fondlarning moliyaviy nazoratini tartibga solish masalalari

25. G‘aznachilik tizimida byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish masalalari

26. G‘aznachilik tizimida narxlar monitoringini moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati

27. G‘aznachilik tizimini takomillashtirishning xorij tajribasi va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash imkoniyati

28. Glaballashuv jarayonida xalqaro moliya munosabatlarning hozirgi

zamon muammolari

